

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

### **YASSAVIY XARAKTERINI YARATISHDA PERSONAJLARNING ROLI**

**Komila Matchanova,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat*

*pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti*

*mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining vakillaridan biri Sa’dulla Siyoyev asarlaridagi tarixiylik, milliylik va Yassaviy xarakterini yaratishda personajlar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sa’dulla Siyoyev, badiiy asar, “Ahmad Yassaviy”, personaj.

**Аннотация.** В данной статье говорится об историчности, национальности и характерах в создании образа Яссави в произведениях Садуллы Сиёева, одного из представителей узбекской литературы.

**Ключевые слова:** Са’дулла Сиёев, художественное творчество, «Ахмед Яссави», персонаж.

**Annotation.** This article talks about historicity, nationality and characters in the creation of Yassavi’s character in the works of Sadulla Siyoyev, one of the representatives of Uzbek literature.

**Key words:** Sa’dulla Siyoyev, artistic work, “Ahmed Yassavi”, character.

Sa’dulla Siyoyev o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos nom qozongan va katta iz qoldirgan yozuvchilardan biri edi. Sa’dulla Siyoyev o‘z ijodini hajviyotdan boshlab turib tarixiy romanlar bilan yakunlagan katta adibimiz edi. Mana uning orqasidan “Ahmad Yassaviy” degan bir buyuk asar yaratildi. Bu asarni o‘qigan odam Yassaviy bobomizni dahosiga tan beradi.

Yozuvchining maxsus asari buyuk alloma Xo‘ja Ahmad Yassaviy hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib asar tom ma’noda tarix va bugunning o‘ziga xos yetuk mahsulidir. Adib o‘tgan asrda xalqning boshiga kelgan muommolarni, zulumatli kunlarni, turli illatlarni, shuningdek tarixiy shaxslar obrazini, ularning orzu-armonlarini o‘z so‘zlari bilan ayta oldi. Yozuvchi asarini o‘qib, aynan tarixiy haqiqat, yoshlarga ta’sir o‘tkazgan illatlarning tajallisini ko‘ramiz. Yuqoridagi fikrlarimizni dalillash maqsadida ijodkorning “Ahmad Yassaviy” romani haqida fikr yuritamiz [1.64].

Yozuvchining maxsus asari buyuk alloma Xo‘ja Ahmad Yassaviy hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib asar tom ma’noda tarix va bugunning o‘ziga xos yetuk mahsulidir. Asarni olib o‘qigan kitobxon tugashini xohlamaydi. Tili ham juda zo‘r. Asarga o‘sha davrni tilini olib kelganlar. O‘sha davr tili bilan yozilgan. Bu asarni o‘qigan kitobxon Yassaviy bobomizning dahosiga tan beradi. Shunday o‘qiladiki, shunday uning ichiga kirib borasizki kutib turasiz bu avliyo bobomiz nima der ekanligini. Bu kitobni o‘qib odam titrab, iliglarigacha titrab ketadi.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Romanning ma’no doirasi juda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolar qalamga olingan. Sa’dulla Siyoyev roman voqeligi tasvirida ayrim joylarda hayotiy mantiqdan voz kechgan. Yozuvchi asarlarida obrazlar xarakterini, ularning psixologizmini, dunyoqarashlarini shu darajada yaxshi yoritib bera olganki, “Ahmad Yassaviy” romanni o‘qish jarayonida kitobxon har bir qahramon haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘ladi [2.91].

Sa’dulla Siyoyev o‘z asarlarida har xil xarakterdagi personajlardan foydalangan. Muallif asarlarini o‘qigan kitobxonda ezgu ma’naviy sifatlar shakllanishi va insonlarning xatti-harakatlarini, ularga xos xususiyatlarni ochib bera olgan ijodkor hisoblanadi. Sa’dulla Siyoyevning mahorati, bir tamondan, real ya’ni hayotdagi yangilikni ko‘ra olish va uni turli usullar bilan tahlil eta olish san’ati bo‘lsa, ikkinchi tomondan adabiyot san’atining sirlarini chuqur egallay olganini ko‘rishimiz mumkin. Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida tarixiy shaxs tasviri hamda asar qahramonlarining his-tuyg‘ulari o‘rin almashinuvlarini ko‘rishimiz mumkin. Qahramon shaxsini ochib berishga yo‘naltirilgan har bir chizgi, timsol hamda obrazlarning his-tuyg‘ularini ochib berishlari qabarib ko‘rinadi. Muallifning mahorati shundaki, u yaratgan obrazlar hammasi har xil, biri ikkinchisini takrorlamaydi.

Sa’dulla Siyoyev asarlariga ko‘plab insonlar tan bergen. Sa’dulla Siyoyevning boshqa tarixiy asarlarini o‘qisangiz hamma narsani tushunasiz. Dunyo ko‘zingizga tor ko‘rinadi. Ham hajviy narsalar yozishga ham jiddiy romanlarni yozishga, ham o‘sha tarixga kirishga ham kirib borib xuddi o‘sha joyda yashayotgandek yozganlar [3.34].

Sa’dulla Siyoyev ijodi haqida aytadigan bo‘lsak adabiyotda o‘zining alohida o‘rni bor. U o‘z sohasida uddalab ijod qilgan adib hisoblanadi. Nafaqat adabiyot sohasidan tashqari balki samimiyl inson, mehridaryo ijodkor, ajoyib ustozdir. Sa’dulla Siyoyev ish faoliyati davomida xalq muammolarini hazil va mutoyiba orqali olib chiqishga, ularga yechim izlashga intiladigan ijodkorlardan edi. Xalq dardini o‘ziniki deb anglagan shu dardlar bilan yashaguvchilarni esa do‘sti deb biladigan ajoyib inson edi.

Sa’dulla Siyoyev asarlarining xalqqa yoqqanining sababi bu asarlar xalqchil yozilgan. Ya’ni xalqni o‘zidan olingan va xalqqa berilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yasaviy. Toshkent, 2001.
2. Omanova M. Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani haqida O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2021.
3. Muqumov Z. Qilich va qalam sohiblari (Davlat arboblari haqida tarixiy lavhalar). Risola. – Samarqand, SamDU nashri, 2013.